

# O'ZBEKISTON VA FINLANDIYA MUSIQA TA'LIMINI O'QITISHNING QIYOSIY TAHLILI

**J.R.Axrорov<sup>1</sup>**

1.2. O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti, Samarkand, O'zbekiston

**Sh.N.**

**Omanqulova<sup>2</sup>**

**Annotatsiya:** Maqolada Finlandiya va O'zbekiston musiqa ta'lismi tizimi haqida umumiy ma'lumot berilgan bo'lib, bunda ikkala davlatning musiqa ta'limi o'qitish tizimi, tuzilishi, farqlari va natijalarning samaradorligi haqida fikr yuritilgan. Finlandiya musiqa ta'lismi tizimida mavjud metodlarning samarali tomonlarini o'zlashtirgan holda, umumta'lum maktablarida mumtoz musiqa san'atini o'rgatish orqali yoshlarimizni milliy qadriyatlar va an'analarimiz ruhida tarbiyalashning usullari yoritib berilgan.

**Kalit so'zlar:** O'zbekiston, Finlandiya, musiqa ta'limi o'qitish tizimi, bolalar musiqa maktablari, maktabgacha ta'lim tashkilotlari musiqa mashg'ulotlari, umumta'lum maktablar, musiqiy kompitensiyalar, o'zbek mumtoz musiqasini o'rgatish, pedagogik faoliyat, musiqa o'qituvchisi.

**Аннотация:** В статье представлены общие сведения о системе музыкального образования Финляндии и Узбекистана, в которых широко обсуждаются система, структура, различия и эффективность результатов музыкального образования в обеих странах. Путем принятия эффективных аспектов существующей методологии в финской системе музыкального образования подробно объясняется значение воспитания нашей молодежи с осознанием наших национальных ценностей и традиций через нашу классическую музыку в общеобразовательных школах.

**Ключевые слова:** Узбекистан, Финляндия, система музыкального образования, детские музыкальные школы, музыкальные классы дошкольных образовательных организаций, общеобразовательные школы, музыкальные компетенции, преподавание узбекской классической музыки, педагогическая деятельность, учитель музыки.

**Abstract:** The article provides general information about the music education system of Finland and Uzbekistan, in which the system, structure, differences and effectiveness of the results of music education in both countries are widely discussed. By adopting the effective aspects of the existing methodology in the Finnish music education system, the meaning of educating our young people with awareness of our national values and traditions through our classical music in general education schools is explained in detail.

**Key words:** Uzbekistan, Finland, system of music education, children's music schools, music classes of preschool educational organizations, comprehensive schools, musical competences, teaching of Uzbek classical music , pedagogical activity, music teacher.

## Kirish

Jahonda ilm-fan va texnika taraqqiyotining jadallik bilan rivojlanishi, insoniyatning ma'naviy dunyoqarashining rivojlanishiga, sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Mazkur jarayonda har bir soha zamonlar osha charxlanib, mukammallahib, yangidan-yangi ijobiy munosabatlar negizida boyib, o'z samarasini namoyon etmoqda. Buning pirovardida har bir jamiyat o'zining rivojlanish yo'lida bosib o'tgan tarixi, shakllangan madaniyatini, ijtimoiy hayotini

o‘rganish, uni targ‘ib qilish va butun dunyoga tanittirish maqsadida turli ilmiy tadqiqotlarini va madaniy tadbirlarni amalga oshirmoqda. Bunday maqsadlarga erishish yo‘lida musiqa san’atining roli juda katta hisoblanadi. Chunki har bir xalqning o‘z ma’naviyati, ma’rifati, estetikasi bo‘lib, musiqa sohasi orqali o‘tmishdagi qadriyatlardan tortib, to zamonaviy shakllanayotgan mafkurasini faqat ohanglarda muhrlangan betakror asarlardan anglash mumkin. Bilamizki, musiqa san’ati rivojlangan mamlakatlarda boy madaniy meroslarning biri hisoblanib, ardoqlab kelinadi. Buning sabablaridan biri sifatida, tarbiyaviy ahamiyati kuchliligida deb qaraladi. Musiqa san’ati orqali tarbiyalash, nafosat tarbiyasining asosiy va murakkab qirralaridan biri hisoblanib, insonni atrofdagi go‘zal narsalarni to‘g‘ri idrok etishga va qadrlashga o‘rgatadi. Musiqa inson ruhiyatiga kuchli ta’sir ko‘rsatish imkoniyatiga ega bo‘lib, uni go‘zallik olamiga olib kiradi va axloqiy g‘oyaviy tarbiyalashning muhim vositalaridan biri hisoblanadi. Shuning uchun aytish mumkinki, musiqa insonni yuksak did bilan qurollantiradi va unga ma’naviy ozuqa beradi. Bu jarayonni samarali tashkil etishda albatta, musiqa o‘qituvchilarining roli juda katta. Shu sabab bugungi kunda jahonda musiqa o‘qituvchilarni o‘qitishning yangi metod va imkoniyatlarni yaratish haqida chuqur ilmiy izlanishlar olib borilmoqda [4].

### Tahlil va natijalar

Hozirgi kunda jahonda eng ilg‘or rivojlangan ta’lim tizimiga ega Finlandiyada ham musiqa ta’limi alohida mavqiyega ega. Chunki Finlandiyada hukumat musiqa ta’limini fuqarolarining yoshligidanoq institutsional yo‘lga qo‘yib, katta miqyosda musiqani jamiyat hayotining muhim qismiga aylantirgan. Finlar uchun bu jarayon bolalar bog‘chasida boshlanadi. Yetti yoshida rasmiy ta’limni boshlashdan oldin ham Finlandiya bolalari hayotining dastlabki yillarini bolalar bog‘chasida o‘tkazadilar va ular musiqaning ko‘p qirrali olami bilan tanishadilar. Finlandyaning yuqori sifatli bolalar bog‘chalarida musiqiy mashg‘ulotlar, bolalar ishtirok etadigan asosiy mashg‘ulotlardan biridir. Shuning uchun musiqa finlandiyalik kichkintoy uchun hayotining boshidanoq tanish bo‘lgan omildir.

Finlandiyada bolalar bog‘chalaridan tashqari musiqa maktablari ham mavjud. Ular bolalar bog‘chasi emas, ya’ni ular hech qanday asosiy bola parvarishini ta’minlamaydi. Ular bolalarga musiqiy-nazariy asoslarini, qo‘sishq aytishni, cholg‘u asboblarini chalish va musiqa tinglashni o‘rgatadigan muassasalardir. Asosiy darslar yosh o‘quvchilarining kognitiv, hissiy va ijtimoiy rivojlanishini qo‘llab-quvvatlash uchun mo‘ljallangan. Sinfda ular qanday qilib do‘stlik munosabatlarini shakllantirishni o‘rganadilar va o‘zlariga bo‘lgan ishonchni oshiradilar. Buning ustiga mazkur jarayon orqali ular o‘zlarining imkoniyat va qobiliyatlarini yaxshiroq anglab borishadi [2].

Maktabgacha ta’limdan so‘ng musiqa 1-sinfdan 9-sinfgacha yetti yoshdan boshlab barcha bolalar uchun majburiy fan hisoblanadi.

Bugungi kunda Finlandiyada umumta’lim maktablarida musiqa bo‘yicha o‘quv dasturi estrada janriga asoslangan. Ilgari musiqa darslari “qo‘sishq darslari” deb atalar edi, lekin bu atama rasman olib tashlandi va vokal musiqa bilan bir qatorda cholg‘u musiqasi, zamonaviy elektron musiqa asboblari, kompyuter dasturlari, musiqiy ijroni tinglash, jismoniy ifoda va ijodiy ishning turli shakllariga

ham katta ahamiyat beriladi. Haftalik soatlar soni maktabga bog‘liq. 1-6-sinflarda minimal vaqt jami 6 hafta-soatni, ya’ni yiliga haftasiga 1 soatni tashkil etadi. Maktablar har qanday fan bo‘yicha haftalik soatlar sonini ma’lum chegaralar ichida mustaqil ravishda hal qiladilar. 3-sinfdan boshlanadigan musiqa darslarida odatda haftasiga 4 soat musiqa darsi beriladi. 7-9-sinflarda odatda atigi 1 haftalik majburiy musiqa o‘rgatib, asosan yettinchi sinfda o‘qiladi, shundan so‘ng musiqa tanlov predmetiga aylanadi [5].

Birinchi va to‘rtinchi sinfgacha o‘quvchining musiqiy ifodasini raqs va o‘yin bilan integratsiyalashgan faoliyat orqali rivojlantirish asosiy o‘rin tutadi. Ko‘rsatma o‘quvchilarga turli xil tovush olamlari va musiqalari bilan tajriba berish va ularni o‘z fikrlarini ifoda etishga va o‘z g‘oyalariga haqiqiy shakl berishga undashi kerak.

Beshinchi-to‘qqizinchi sinflarda musiqa o‘rgatish jarayonida musiqa olami va musiqiy kechinmalar tahlil qilinadi, o‘quvchilar musiqa tinglash va ijro etish bilan birgalikda musiqiy tushunchalar va nota yozuvlaridan foydalanishni o‘rganib, ular quyidagi kompetensiyalarga ega bo‘ladilar:

- jamoaviy qo‘sish qaylashda qatnashish va kuy chizig‘iga rioya qilib, to‘g‘ri ritm bilan kuylashni bilish;
- ansamblida ijro qila olish uchun individual ravishda qandaydir ritmik, ohang yoki garmonik ijro texnikasini egallash;
- musiqa tinglash va u haqida mulohaza yuritishni bilish, eshitganlari haqida asosli fikrlarni bildirish;
- boshqalar bilan birgalikda musiqa yaratish uchun o‘z musiqasini ham, boshqalar tomonidan yaratilgan musiqani ham tinglashni bilish;
- musiqaning turli janrlari va turli davrlar va madaniyatlar musiqasini tan olish va farqlashni bilish;
- eng muhim fin musiqasi va musiqiy hayotini bilish;
- musiqa yaratish va tinglash bilan bog‘liq holda musiqiy tushunchalardan foydalanishni bilish;
- musiqiy g‘oya va fikrlarini rivojlantirish va amalga oshirishda musiqa elementlaridan foydalanishni bilish [3].

Finlandiya musiqa maktablari uyushmasi (Suomen Musiikkioppilaitosten Liitto) ma’lumotlariga ko‘ra, Finlandiyada 190 ga yaqin mifik va muassasalar musiqa ta’limi beradi. Ulardan 89 nafari asosiy san’at ta’limi to‘g‘risidagi qonun bilan tartibga solinadigan milliy o‘quv dasturi asosida davlat tomonidan moliyalashtiriladi. Assotsiatsiya 97 a’zodan iborat. Ulardan 86 tasi musiqa instituti, 11 tasi konservatoriyalardir. Musiqa ta’lim yo‘nalishida jami 67 ming nafar o‘quvchi tahsil olayotgan bo‘lsa, ularning 64 foizini qizlar tashkil etadi [5].

Finlandiyadagi musiqa ta’limi tizimi o‘quvchilarni standartlashtirilgan, ishlashga asoslangan o‘lchov mezonlari asosida tartiblamaydi. Bu ancha katta maqsadga xizmat qiladi. Uning asosiy maqsadi yosh o‘quvchilarni musiqaga ijobiy, umrbod ishtiyoqni rivojlantirishga ilhomlantiradigan qulay sharoitlarni yaratishdir.

Sodda qilib aytganda, ta’lim tizimi o‘quvchilarni musiqaga mehr qo‘yishga va bu muhabbatni butun umri davomida tarbiyalashga mo‘ljallangan. Bu ko‘proq musiqani fuqarolar hayotidagi doimiy ajralmas vositaga aylantirishga urinish kabitidir. Musiqa ta’limida ham tenglik tamoyili amal qiladi.

Finlandiyaning maktab ta'limi tizimi 70-yillarda jiddiy islohotlar boshlanishidan oldin ishlab chiqilgan edi. Islohotlarning bir qismi sifatida Finlandiya kapitalga katta ustunlik berdi. Ta'lim kontekstida tenglik qayerda yashashidan, ota-onasining iqtisodiy ahvoldidan va qaysi maktabda o'qishidan qat'i nazar, barcha bolalar uchun yuqori sifatli ta'lim olish imkoniyatini ta'minlashni anglatadi [4].

Xususan, yurtimizda ham musiqa ta'lim tizimini rivojlantirish, yoshlarning ma'naviy dunyoqarashini yuksaltirish, umummilliy qadriyatlarimiz asosida o'zlikni anglashni o'rgatish va ta'lim-tarbiya berish ustuvor vazifalarimizdan biri sifatida qaralmoqda. Bu maqsadlarni ro'yobga chiqarish yo'lida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-fevraldagagi "Madaniyat va san'at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo'shimcha chora tadbirlar to'g'risida"gi PQ-112-sون Qarorida umumiy o'rta ta'lim maktabi bitiruvchilarining kamida bitta milliy musiqa cholg'usini ijro eta olganlik to'g'risidagi bahoni shahodatnomaga kiritish, musiqa o'qituvchilarining kamida uchta milliy musiqa cholg'usini bilishi, maktablarda havaskor ansambillarning tashkil etilishi, yangi darslik va o'quv qo'llanmalarni yaratish, talabga javob bera oladigan malakali kadrlarni tayyorlash masalalari nazarda tutilgan. Tabiiyki, bunday imkoniyatlarning yaratilishi natijasida talaba-yoshlarning mumtoz musiqamiz haqida tushunchalarining kengayib borishiga xizmat qiladi. Kelajagi buyuk davlatni qurish uchun eng avvalo ma'naviy kamol topgan insonlarni tarbiyalash muhim ahamiyatga ega [6].

O'zbekistonda musiqa ta'lim tizimi quyidagicha shakllangan:

3-6 yosh: Maktabgacha ta'lim tashkilotlari – musiqa va san'at bo'yicha ilk umumiy tushunchalar beriladi, tasavvurlar shakllantiriladi. Bolalarga musiqiy qiziqishlar uyg'otiladi.

7-14 yosh: Umumta'lim maktablari 1-7- sinflarda o'quvchilarga musiqa va san'at bo'yicha umumiy tushunchalar beriladi, musiqiy madaniyat asoslari shakllantiriladi. "Bolalar musiqa va san'at maktab"lari - tanlangan mutaxassisliklar bo'yicha maxsus boshlang'ich musiqa va san'at ta'limi bo'yicha asosiy mahorat, zahira bilim va amaliy ko'nikmalarni tizimli rivojlanishini ta'minlaydi.

15-17 yosh: Maqom yo'nalishiga ixtisoslashtirilgan maktab-internatlar – milliy musiqa – maqom san'ati yo'nalishi bo'yicha chuqurlashtirilgan bilimlar berilib, oliygochlarda o'qishni davom ettirishga tayyorlaydi. Respublika ixtisoslashtirilgan musiqa va san'at akademik litseylari – musiqa va san'at yo'nalishi bo'yicha chuqurlashtirilgan bilimlar berilib, oliygohlarga o'qishini davom ettirishga tayyorlaydi.

18-22 yosh: 1. O'zbekiston davlat Konservatoriysi – musiqa yo'nalishlari bo'yicha bakalavr va magistr darajasidagi mutaxassislar tayyorlanadi. O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti – teatr va kino san'ati, aktyorlik va boshqa yo'nalishlar bo'yicha bakalavr hamda magistr darajasidagi mutaxassislar tayyorlanadi. Yunus Rajabiy nomidagi milliy musiqa san'ati instituti – milliy musiqa va an'anaviy san'ati yo'nalishida bakalavr hamda magistrler tayyorlanadi. Milliy raqs va xoreografiya oliy maktabi – xoreografiya va raqs san'ati yo'nalishi bo'yicha bakalavr hamda magistr darajasidagi mutaxassislar tayyorlanadi. Respublika viloyatlari universitetlarning san'atshunoslik fakultetlari – musiqa va

tasviriy san'at, badiiy grafika yo'nalishida san'atshunoslik, ijrochilik va san'at pedagogikasi sohalarida bakalavr hamda magistrlar tayyorlanadi.

2022-2024-yillar davomida 10130 ta maktab, 323 ta bolalar musiqa maktabi, 826 ta madaniyat markazi 7 turdag'i milliy cholg'ular bilan 3 to'plamda ta'minlanadi. Buning uchun respublika va mahalliy budjetlardan teng ulushlarda jami 205 mlrd so'm ajratiladi. Bundan tashqari, o'quvchilar uchun milliy musiqa cholg'ulari, tasviriy va amaliy san'at, hunarmandchilik yo'nalishlarida amaliy to'garaklar tashkil etish uchun 2022-yilning o'zida 92 mlrd so'm mablag' ajratiladi. O'zbekistonda ishlab chiqarilmaydigan cholg'u asboblari, ovoz kuchaytirgich moslamalari, texnik jihozlar, chiroqlar, maxsus liboslar O'zbekistonga olib kiritilishiga 2025-yilning 25-yanvarigacha bojxona bojidan ozod etiladi. Bulardan ko'zlangan maqsad ta'lim muassasalarida o'quvchi va talabalarning musiqiy bilim va ko'nikmalarini oshirish, qalbida milliy madaniyatga bo'lgan muhabbatini kuchaytirish, yosh iste'dodlarni aniqlashdir.

O'zbekistan Respublikasining "Ta'lim to'g'risida" gi qonuni asosida ta'lim tizimida ro'y berayotgan o'zgarishlarga ko'ra, 9 yillik umumiy o'rta ta'lim joriy etildi. Musiqa predmetiga davlat ta'lim standartini joriy etilishi, milliy, musiqiy merosimizdan foydalananishni hamda xududiy voxalarni san'ati va madaniyati, u yerdag'i mahalliy xalq an'analari o'z ifodasini topgan. Shuningdek, ta'lim standart o'zining tuzilishiga va mazmuniga ko'ra, davlat, hudud, maktab manfaatlari va vositalari muvozanatini aks ettiradi, o'quvchi shaxsi, uning intilishlari, qobiliyati va qiziqishini hisobga olgan holda yangi (1-7) sinflar uchun yangi dastur tuzilgan. Dastur asosida darsliklar metodik qo'llanmalar, tavsiyanomalar esa yaratilmoqda.

Yetti yillik musiqa o'qitish davrida o'quvchilarni go'zallikni his eta oladigan, musiqaga mehr va havas bilan qaraydigan, milliy musiqa merosimizga vorislik qila oladigan barkamol inson qilib tarbiyalash asosiy maqsad qilib quylgan [3].

Musiqa fanidan bir yilda 2 marta yarim yillik taxmini - mavzuli ish rejasi va shunga qarab, har bir dars uchun reja - konspekt tuziladi. Yarim yillik ish rejasi boshlang'ich va o'rta sinflar uchun alohida - alohida tuziladi. Bunda o'quvchilarni yoshi (sinf), ovoz diapazoni, musiqaga qiziqishi va qobiliyati, yil fasllari, bayramlar, yil, chorak dars mavzulari hisobga olinib, yangi dasturdan foydalanim dars strukturasi asosida tuziladi. Musiqa darslari asosan bir haftada bir soat o'tiladi. O'quv yili davomida esa quydagi tartibda; I chorak 9 soat, II chorak 7 soat, III chorak 10 soat, IV chorak 8 soat. Jami bir yilda 34-35 soat dars o'tiladi. Shuningdek, har bir o'quv yilida 12-14 ta qo'shiq o'rgatiladi, shunga qarab, musiqa savodi va musiqa tinglash jarayonida 12-14 asarlar tinglanadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari asosan, bir ovozli qo'shiqlari sof unisonda kuylash malakalarini puxta o'zlashtiradi va ayrim hollarda ko'p ovozlikka o'tishga tayyorgarlik ko'rildi.

Ikkinci sinfning ikkinchi yarmidan boshlab, ikki ovozlik elementi bor qo'shiqlar kiritilgan. III-IV sinflarda o'quvchilarni ovoz apparatlari shakllangan bo'ladi, ikki ovozli qo'shiqlami kuylash, ko'nikma va malakalarga ega bo'ladi. Shunga ko'ra oddiydan murakkabga printsipi asosida musiqaviy asarlar tanlanadi. Boshlang'ich sinfda dars strukturasi beshta faoliyat turidan iborat bo'ladi:

1. Xor bo‘lib kuylash; 2. Musiqa savodi; 3. Musiqa tinglash; 4. Musiqa harakteriga mos harakatlar bajarish; 5. Bolalar cholg‘u asboblardan jo‘r bo‘lish.

O‘rta (V-VII) sinflarda esa, dars faoliyati bir munkha kamayadi. Chunki, o‘rta sinf o‘quvchilari ko‘nikma va malakalarga ega bo‘ladilar. Dars mazmuni chuqurlashib, o‘quvchilar bilim va malakalarini kengayishiga xizmat qiladi. Musiqa darsi uchta faoliyat asosida olib boriladi:

1. Xor bo‘lib kuylash; 2. Musiqa savodi; 3. Musiqa tinglash.

Bunda bolalarning ovoz apparatlari shakllangan musiqiy qobiliyatlarini rivojlangan, musiqaning tuzilishi, shakii musiqa ifoda vositalari haqida bilimga ega bo‘ladilar va musiqa tinglash qobiliyati rivojlangan bo‘ladi. O‘rta sinfdagi o‘quvchilar uchun (V-VII sinf) musiqa dasturi asosida darslar rejalashtirib, ikki ovozli, ovoz mashqlari, ikki ovozli qo‘shiqlar, musiqa savodi va musiqa tinglashdan, shunga qarab murakkabroq asarlar tinglanadi. Har bir faoliyat bir-biri bilan bog‘liq bo‘lib, dars mazmunini, ya’ni bir butunlikni ta’minlaydi. Chorak mavzulari, yil mavzulariga bo‘ysunadi.

Mazkur jarayon orqali o‘quvchilarga qo‘shiq kuylash bilan birga, ularni ko‘proq fikr bildirish, baxsga tortish va amaliy faoliyatiga ko‘proq jalb etish va odilona baholash malakasi shakllanadi. Yurtimizda musiqa darslari yangi dastur asosida rejalashtirilib, o‘quvchilarda milliy musiqamizga mehr-muhabbat va qiziqish uygotishi uchun alohida ahamiyat berilmoqda.

### Xulosa va takliflar

Keltirib o‘tilgan ma’lumotlardan ko‘rinib turibdiki, O‘zbekistonda va Finlandiyada ham o‘ziga xos musiqa ta’lim tizimi mavjud. O‘zbekiston musiqa ta’lim tizimi o‘zga xos tarzda rivojlanib bormoqda, lekin Finlandiya ta’lim tizimi dunyoda eng ilg‘or rivojlangan tizimlardan birilagini hisobga olib va undan bizga samarali bo‘ladigan tomonlarini o‘zimizga singdirb olsak, maqsadga muvofiq bo‘ladi.

O‘zbekiston musiqa ta’limi tizimiga quyidagilarni kiritish maqsadga muvofiqdir:

- musiqa darslari orqali o‘quvchilarni kognitiv, hissiy va ijtimoiy rivojlanishini qo‘llab-quvvatlash, do‘stlik munosabatlarini shakllantirish va o‘ziga bo‘lgan ishonchni oshirish, imkoniyat va qobilyatlarini yaxshiroq anglay olish;
- musiqa maktablarida bolalar qatnovini keng tarmoqda tashkil etish va musiqa maktablarini musiqa institutlar va konservatoriylar bilan hamkorlikda ishlashi;

- umumta’lim maktablarida vokal musiqa bilan bir qatorda cholg‘u musiqasi, zamonaviy elektron musiqa asboblari, kompyuter dasturlari, musiqiy ijroni tinglash, jismoniy ifoda va ijodiy ishning turli shakllariga ham katta ahamiyat berilishi;

- maktablar har qanday fan bo‘yicha haftalik soatlar sonini ma’lum chegaralar ichida mustaqil ravishda hal qillishi;

- 3-sinfdan boshlanadigan musiqa darslarida odatda haftasiga 4 soat musiqa darsi berilishi va 7-9-sinflarda ham 1 haftalik majburiy musiqa o‘rgatish va shundan so‘ng musiqa tanlov predmetiga aylanishi;

- musiqa ta'limi tizimi o'quvchilarini standartlashtirilgan, ishslashga asoslangan o'lchov mezonlari asosida tartiblanmasligi;
- ta'lim kontekstida tenglik qayerda yashashidan, ota-onasining iqtisodiy ahvoldidan va qaysi maktabda o'qishidan qat'iy nazar, barcha bolalar uchun yuqori sifatli ta'lim olish imkoniyatini ta'minlanishi;
- tenglik tamoyiliga asoslanib, bolalarga baholar qo'ymaslik va bu orqali kim o'zarni jarayonini yo'qotib, jamoaviy rivojlanishni shakllantirish.

Yuqorida keltirib o'tilgan takliflar orqali musiqa ta'lim tizimimizga milliy madaniy merosimiz hisoblanmish mumtoz musiqamizni umumta'lim maktabi o'quvchilarigan singdirishga urg'u bersak, maqsadga muvofiq bo'ladi. Chunki mumtoz musiqamiz bilan yuritiluvchi ashulalar va milliy cholg'u ijrochiligi namunalari salmoqli mavqeyiga ega bo'lib, musiqa ta'limi va tarbiyasi mazmunida ulardan o'z o'rnida va aniq pedagogik maqsadlarda foydalanish o'sib kelayotgan yosh-avlodni milliy g'oya va mafkura ruhida tarbiyashda benazr manba bo'lib xizmat qiladi. Mumtoz musiqamiz va uning ayrim turlari, ijrochilik yo'nalishlari vositasida estetik, ma'naviy, badiiy did, axloqiy fazilatlarni tarbiyalash masalalari respublikamizda bajarilgan qator ilmiy-tadqiqotlarda o'z ifodasini topgan.

Mumtoz musiqamiz orqali milliy o'zlikni anglash, shu asnoda milliy qadriyatlarimizni tiklash, yuksaltirish, amaliyotda keng joriy qilish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Bugungi kunda musiqa san'atida yangi e'tiborga molik ishlar amalga oshirilishi munosabati bilan yosh avlodga milliy mumtoz musiqamiz asosida ta'lim-tarbiya berish uchun muhim ishlar amalga oshirilmoqda. Bu jarayonni samarali rivojlantirishda esa bo'lajak musiqa o'qituvchilarining kompitensiyalarini keng ko'lamli rivojlantirish va zarur shart-sharoitlar yaratish bugungi kunning dolzarb ahamiyatidir.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 17-noyabrdagi "O'zbek milliy maqom san'atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3391-sон Qarori.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-fevraldagi "Madaniyat va san'at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-112-sон Qarori.
3. Sharipova G., Asanova D., Xodjayeva Z. Musiqa o'qitish nazariyasi metodikasi va mакtab repertuari. – T., 2014, 24-25 b.
4. Axrorov J. San'at, til va madaniyat masalalarini ilmiy o'r ganishda fan va innovasiyalar uyg'unligi. Bo'lajak musiqa o'qituvchilariga o'zbek mumtoz ashulalarini o'rgatishning metodik imkoniyatlari. – T., 2023, 208-211 b.
5. medium.com
6. <http://menet.mdw.ac.at>